

The logo for IMRS (Institute for Macroeconomic and Regional Studies) is a red square with the letters 'IMRS' in white, bold, sans-serif font.

Institute for Macroeconomic  
and Regional Studies

Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti

2024  
**2025**  
2026

DEKABR  
**YANVAR**  
FEVRAL

Faoliyatning  
asosiy  
ko'rsatkichlari

## Mundarija

Tabiat bilan uyg'unlik milliy qadriyat sifatida.....	2
2024-yilning dekabr oyida Toshkent shahrida uy-joylar uchun o'rtacha ijara narxlari tahlili .....	3
2024-yilning yanvar-sentyabr oylari uchun hududlar sanoatining raqobat ustunligi reytingi ishlab chiqildi .....	5
2025-yilning yanvar oyida Toshkent shahridagi supermarketlarda oziq-ovqat mahsulotlari narxining o'zgarishi ko'rib chiqildi .....	7
2024-yilning dekabr oyida ikkilamchi bozordagi avtomobil o'rtacha narxlari tahlili .....	8



Inson hayotining tabiat bilan uzviy bog'liqligi minglab yillar oldin o'z isbotini topgan haqiqat. Tabiatdagi har bir hodisa, voqea va jarayonlar inson hayotiga bevosita ta'sir o'tkazmay qolmaydi. Shuning uchun bugungi kunda tabiatga nisbatan ehtiyotkorona munosabatda bo'lish, uni asrab-avaylash va u bilan uyg'un holda yashash eng dolzarb mavzulardan biriga aylangan.

Eng muhimi, tabiatga muhabbat tuyg'usini yoshlar ongiga qadriyat sifatida singdirish darkor.

Zotan, tabiatni asrash insoniyatni asrash, demakdir va buni bir qonun, tashkilot yoki dastur bilangina emas faqat chuqur singdirilgan kundalik qadriyat darajasida amalga oshirish mumkin.

Atrof-muhit omillarining aholi salomatligi va mehnat unumdorligiga ta'siri o'nlab yillar davomida tadqiqot mavzusi bo'lib kelgan.

Iqtisodiy nuqtayi nazardan, sog'lom aholi va ishchi kuchi farovonligi mehnat unumdorligini oshiradi, ishchilarning vaqtincha nafaolligi bilan bog'liq xarajatlarni kamaytiradi va oxir-oqibat aholining moliyaviy farovonligini yaxshilaydi.

Ko'pgina xorijiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, xodimlarning jismoniy va ruhiy salomatligini yaxshilash moliyaviy holatga ijobiy ta'sir qiladi. Yaxshi kayfiyatga ega sog'lom xodimlar ko'proq ishchanlik qobiliyatiga ega bo'lib, qisqa vaqt ichida katta hajmdagi ishlarni bajarishi mumkin. Aksincha, yomon ekologik muhit va tabiat bilan uyg'unlikning yo'qligi nafas yo'llari (havo sifatining pastligi sababli) va ichak kasalliklarining (suv va oziq-ovqat sifati pastligi sababli) tarqalishiga olib kelishi mumkin.

**Metodologiya.** Ushbu tahlillarni olib borishda Jahon bankining 169 ta mamlakatga oid ma'lumotlaridan foydalanildi. Bu ko'rsatkichlar aholi jon boshiga CO2 emissiyasi va RM2.5 miqdori (m<sup>3</sup> ga to'g'ri keluvchi mikron hajmi), suv taqchilligi va tabiiy o'rmonlar (million m<sup>3</sup>) atrof-muhit sharoitlari uchun proksi o'zgaruvchilar sifatida foydalanildi.

**Natijalar.** Regressiya modeli natijalariga ko'ra, nafas yo'li kasalliklari bilan bog'liq o'limning 10 kishiga (100 000 aholiga) ko'payishi aholi jon boshiga YaIMni (2015-yil narxlarida) 631,2 dollarga kamaytiradi. Nafas yo'li kasalliklarining tarqalishiga tabiatdagi ifloslanishning asosiy ko'rsatkichlaridan biri bo'lgan RM2.5 ning ta'siridir. RM2.5 emissiyasining 1 mikronga kamayishi (m<sup>3</sup> maydonga) nafas yo'li kasalliklari tufayli o'limni 2-3 kishiga (100 ming kishiga) kamaytirish imkonini beradi.

#### Amaliyotda qo'llash uchun:

**Barcha sharoitlarda:** Atrof-muhitga siz ham ta'sir qilishingiz mumkinligini yodda tuting. Kundalik iste'molingizni nazorat qiling va resurslardan qayta foydalanishga qaratilgan sa'y-harakatlarni qo'llab quvvatlang. Shaxsiy hayot: Vaqtingizning ma'lum bir qismini tabiat qo'ynida o'tkazing, uning go'zalligini qadrlang va undagi nozik muvozanatni asrang.

MHTI tomonidan tayyorlangan «Milliy qadriyatlarga asoslangan iqtisodiyot: negizlar va farovonlik uyg'unligining empirik tahlili» deb nomlanuvchi hisobotda erkin va mustaqil fikrlash, lafz, jasorat, harakatda baraka, rozirizolik va boshqa milliy qadriyatlarimizning iqtisodiy taraqqiyot va jamiyat ravnaqiga ta'siri ekonometrik yondashuvlar asosida baholangan.



Mazkur davrda poytaxtda o'rtacha ta'mirlangan xonadonlar uchun o'rtacha ijara narxlari noyabr oyidagiga nisbatan 0,9 foizga pasaygan bo'lsa, to'liq ta'mirlangan xonadonlar uchun o'rtacha narxlar 0,7 foizga ko'tarilgan.

### O'rtacha ta'mirlangan uy-joylar ijarasi.

2024-yilning dekabr oyida o'rtacha ta'mirlangan 1 xonali uy-joylar uchun o'rtacha ijara narxi noyabr oyidagiga nisbatan 0,7 foiz, 2 xonali uy-joylar uchun 0,4 foiz, 3 xonali uy-joylar uchun 1,3 foiz, 4 xonali uy-joylar uchun 0,8 foiz pasaydi.

### O'rtacha ta'mirlangan xonadonlar uchun nisbatan arzon ijara narxlari:

- Sergeli (1 xonali - 296 AQSh dollari, 2 xonali - 345 AQSh dollari, 3 xonali - 414 AQSh dollari, 4 xonali - 451 AQSh dollari);
- Olmazor (1 xonali - 286 AQSh dollari, 2 xonali - 353 AQSh dollari, 3 xonali - 426 AQSh dollari, 4 xonali - 457 AQSh dollari);

### O'rtacha ta'mirlangan xonadonlar uchun nisbatan qimmat ijara narxlari:

- Mirobod (1 xonali - 374 AQSh dollari, 2 xonali - 510 AQSh dollari, 3 xonali - 634 AQSh dollari, 4 xonali - 800 AQSh dollari);
- Yakkasaroy (1 xonali - 380 AQSh dollari, 2 xonali - 521 AQSh dollari, 3 xonali - 667 AQSh dollari, 4 xonali - 733 AQSh dollari).

**To'liq ta'mirlangan uy-joylar ijarasi.** Mazkur davrda to'liq ta'mirlangan 1 xonali (0,7 foizga) va 2 xonali (1,1 foizga) xonadonlar uchun o'rtacha ijara narxlari tushgan bo'lsa, 3 xonali (0,9 foizga) hamda 4 xonali (3,8 foizga) xonadonlar uchun o'rtacha ijara narxlari oshgan.

### To'liq ta'mirlangan uy-joylar uchun nisbatan arzon ijara narxlari:

- Sergeli (1 xonali - 321 AQSh dollari, 2 xonali - 415 AQSh dollari, 3 xonali - 508 AQSh dollari, 4 xonali - 613 AQSh dollari);
  - Uchtepa (1 xonali - 365 AQSh dollari, 2 xonali - 453 AQSh dollari, 3 xonali - 524 AQSh dollari, 4 xonali - 644 AQSh dollari);
- To'liq ta'mirlangan uy-joylar uchun nisbatan qimmat ijara narxlari:
- Mirobod (1 xonali - 486 AQSh dollari, 2 xonali - 725 AQSh dollari, 3 xonali - 1033 AQSh dollari, 4 xonali - 1356 AQSh dollari);
  - Shayxontohur (1 xonali - 535 AQSh dollari, 2 xonali - 735 AQSh dollari, 3 xonali - 1104 AQSh dollari, 4 xonali - 1303 AQSh dollari).

*Ijara narxlari olx.uz platformasidan veb-skreping (web scraping) orqali olingan ochiq ma'lumotlar asosida tahlil qilindi. Bunda 2024-yilning noyabr oyi uchun 38,1 mingta va dekabr oyi uchun 35,1 mingta ma'lumotdan foydalanildi. Ikkala davr uchun ham tahlil narxlar chegarasining yuqori va pastki 5 foizlik kvantillari chiqarib tashlanganidan keyin amalga oshirildi.*


2024-yil Noyabr



2024-yil Dekabr



O'rta ta'mirlangan



To'liq ta'mirlangan

Ijara narxlari darajasi





Ushbu reyting hududlarning ishlab chiqarish sanoati salohiyati va raqobatbardoshligini baholashga qaratilgan.

### Reyting natijalari:

Reyting ishlab chiqarish sanoatining diversifikatsiya va lokalizatsiya ko'rsatkichlari asosida baholanib, bunda Xerfindal-Xirshman indeksi (HHI) va Aniqlangan qiyosiy ustunlik (Revealed Comparative Advantage (RCA)) indeksidan foydalanildi.

### Tahlil natijalariga ko'ra, hududlar 3 guruhga bo'lindi:

**I guruh** tarkibi ishlab chiqarish sanoatida yuqori darajadagi raqobat ustunligiga ega bo'lgan Toshkent shahri, Farg'ona va Namangan viloyatlaridan iborat bo'ldi. Ushbu hududlarning o'ziga xos xususiyati ishlab chiqarishning diversifikatsiyalashgani (HHI=818-1472) hamda tarmoqlarning aksariyat qismi (o'rtacha 30 foizdan yuqori) raqobat ustunligi bo'yicha yetakchi o'rinlarga ega ekanligidir.


**II guruhga** ishlab chiqarish sanoati o'rta darajada diversifikatsiyalashgan va raqobat ustunligi o'rtacha bo'lgan Samarqand, Sirdaryo, Qashqadaryo, Toshkent, Xorazm, Surxondaryo viloyatlari (jami hududlarning 42 foizi) kirgan. Bunda ishlab chiqarish sanoatining diversifikatsiya koeffitsiyenti (HHI=1523-2435), raqobat ustunligiga ega yetakchi tarmoqlarning ulushi esa o'rtacha 22 foizga teng.

**III guruhga** raqobat ustunligi darajasi past bo'lgan hududlar – Qoraqalpog'iston Respublikasi, Buxoro, Jizzax, Andijon, Navoiy viloyatlari kirgan. Ushbu hududlarda ishlab chiqarish sanoatining diversifikatsiyalashuvi nisbatan pastligi (HHI=2574-6290), ya'ni 1-2 ta sohaga yuqori darajada bog'liqligi (ishlab chiqarish sanoatidagi ulushi 60 foizdan yuqori) va raqobat ustunligiga ega tarmoqlarning cheklanganligi kuzatilmoqda.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston sanoati rivojlanishida joylarda mavjud salohiyat va zahiralardan oqilona foydalanishdan kelib chiqib, yangi tayanch nuqtalarini yaratish hududlarning raqobat ustunliklarini barqarorlashtirishga va hududlar o'rtasidagi tafovutlarni kamaytirishga zamin yaratadi. Shu bilan birga, «O'zbekiston – 2030» strategiyasida mahalliy xomashyo bazasidan samarali foydalanish, ilg'or texnologiyalarni joriy etish, sanoatning «drayver» sohalarini rivojlantirish va hududlarning sanoat salohiyatini to'liq ishga solish ko'zda tutilgan.

Umuman olganda, hududlar ishlab chiqarish sanoatining raqobat ustunligi reytingi mamlakatimizda hududlarining sanoat salohiyati va raqobatbardoshligini baholash uchun muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Ushbu reyting natijalari hududlarning iqtisodiy rivojlanish strategiyasini ishlab chiqishda va investitsiyalarni jalb qilishda foydali bo'lishi mumkin.

# HUDUDLAR ISHLAB CHIQRISH SANOATINING RAQOBAT USTUNLIGI REYTINGI



Raqobat ustunlik bo'yicha sanoat tarmoqlarining o'rti:



Izoh: HHI<sup>d</sup> - ishlab chiqarish sanoatining diversifikatsiya darajasi



O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti (MHTI) mutaxassislari 2025-yilning yanvar oyida Toshkent shahridagi yirik supermarketlarda 21 nomdagi oziq-ovqat mahsulotlari narxining o'zgarishini ko'rib chiqdi.

Monitoring natijalari 6 nomdagi mahsulot bo'yicha minimal narxlar o'tgan oydagiga nisbatan pasayganligini ko'rsatdi\*.


Shunday qilib, bodringning minimal narxi 25,2 foiz, margarinniki 8,4 foiz, mol go'shtiniki 5,2 foiz, guruchniki 5,0 foiz, bananniki 2,2 foiz, kartoshkaniki 2,0 foiz pasaygan.

7 nomdagi mahsulot bo'yicha minimal narxlar oshgan. Ayniqsa, lavlagi narxida eng katta o'sish qayd etildi. Bu mavsumiy omil bilan bog'liq.

Limon narxi ham sezilarli darajada oshgan. Ammo o'tgan yilning shu davridagiga nisbatan limon narxi 21,7 foiz arzon.

8 nomdagi mahsulotning eng past narxlari o'zgarishsiz qolgan. Bular - grechka, makaron, pomidor, olma, tovuq go'shti (file), sut, shakar, kungaboqar yog'i.

*\*tahlil 2025-y. 9-yanvar va 2024-y. 12-dekabr kunlari o'tkazilgan monitoring ma'lumotlari asosida amalga oshirildi.*







Mahalliy ommabop avtomobillar narxi. Joriy yilning dekabr oyida ko'p va o'rtacha foydalanilgan mahalliy ommabop avtomobillar narxi noyabr oyidagiga nisbatan pasaygan bo'lsa, kam foydalanilganlari narxida sezilarli o'zgarish kuzatilmadi. Xususan:

- o'rtacha foydalanilgan «**Onix**» narxi 3,6%ga (\$14 000 dan \$13 500 ga), ko'p foydalanilgani narxi 4,4%ga (\$13 600 dan \$13 000 ga);
- ko'p foydalanilgan «**Lacetti**» narxi 1,3%ga (\$13 500 dan \$13 327 ga);
- o'rtacha foydalanilgan «**Cobalt**» narxi 1.6%ga (\$12 500 dan \$12 300 ga), ko'p foydalanilgani narxi 0,8%ga (\$11 800 dan \$11 700 ga);
- o'rtacha foydalanilgan «**Nexia**» narxi 0.9%ga (\$11 500 dan \$11 400 ga);
- o'rtacha foydalanilgan «**Spark**» narxi 1.0%ga (\$10 400 dan \$10 300 ga); ko'p foydalanilgani narxi 0,5%ga (\$9 346 dan \$9 300 ga);
- o'rtacha foydalanilgan «**Damas**» narxi 1.2%ga (\$8 100 dan \$8 000 ga), ko'p foydalanilgani narxi 1%ga (\$7 503 dan \$7 300 ga) arzonlashgan.

#### Mahalliy lyuks avtomobillar narxi.

Mazkur davrda «Malibu» hamda «Tracker» avtomobillarining narxi pasaygan bo'lsa, «Equinox» narxida biroz oshish kuzatildi. Xususan:

- o'rtacha foydalanilgan «**Malibu**» narxi 1.4%ga (\$29 500 dan \$29 100 ga), kam foydalanilgani narxi 4,4%ga (\$31 000 dan \$29 650 ga);
- o'rtacha foydalanilgan «**Tracker**» narxi 1.7%ga (\$18 000 dan \$17 700 ga), kam foydalanilgani narxi - 1,6%ga (\$19 000 dan \$18 700 ga) arzonlashgan. Ko'p hamda o'rtacha foydalanilgan «**Equinox**» narxlari esa mos ravishda 0,9% (\$26 265 dan \$26 500 ga) va 1,7% ga (\$30 000 dan \$30 500 ga) qimmatlashgan.

**Elektromobillar narxi:** Mazkur davrda yangi BYD «E2» (\$17 100) va «Song Plus EV Champion» (\$28 500) elektromobillari 1,7% ga, BYD «Han» (\$32 500) hamda «Yuan Up» (\$21 000) elektromobillari mos ravishda 1,2% va 1,9% ga arzonlashdi.

O'rtacha foydalanilgan elektromobillardan BYD «E2» (\$15 970) va «Han» (\$34 500) o'rtacha narxlari mos ravishda 0,8% va 4,2%ga pasaygan bo'lsa, BYD «Song Plus EV Champion» (\$26 600) hamda «Yuan Up» (\$20 500) narxlarida o'zgarish kuzatilmadi.


Ko'p foydalanilgan BYD «E2» (\$15 250), «Han» (\$31 750) va «Song Plus EV Champion» (\$24 050) o'rtacha narxlari esa mos ravishda 3,0%, 1,8% va 5,3%ga qimmatlashdi.

**Xorijiy avtomobillar narxi.** Chevrolet «Monza» va Kia «Sportage»ning o'rtacha narxi pasaygan bo'lsa, Kia «K5», «Seltos» va Hyundai «Tucson» avtomobillarining o'rtacha narxida o'sish kuzatildi. Mazkur davrda Chevrolet «Monza» (\$17 000) va Kia «Sportage» (\$29 700) avtomobillarining o'rtacha foydalanilgani mos ravishda 1,6% va 4,2%ga, ko'p foydalanilgani 0,7% (\$16 900) va 3,2%ga (\$29 000) va kam foydalanilgani 0,3% (\$18 000) va 1,6%ga (\$31 500) arzonlashdi.

O'rtacha foydalanilgan Kia «K5» (\$27 500), «Seltos» (\$25 500) va Hyundai «Tucson» (\$31 750) avtomobillarining o'rtacha narxlari mos ravishda 1,3%, 2% va 2,4%ga, kam foydalanilganlari uchun narxlar 0,4% (\$29 000), 1,4% (\$26 000) va 2%ga (\$33 500) oshdi.

*Avtomobillar narxini tahlil qilishda ma'lumotlar olx.uz platformasidan veb skreping (web scraping) orqali to'plandi. Bunda, 2020-2024 yillarda ishlab chiqarilgan avtomobillar uchun taklif etilayotgan narxlar saralab olingandan so'ng, noyabr oyi uchun 17,3 mingta, dekabr oyi uchun 16,5 mingta ma'lumot asosida taklif etilgan narxlar tahlil qilindi.*

## Mahalliy lyuks avtomobillar



## Mahalliy ommabop avtomobillar

